

“TASDIQLAYMAN”

“NKMK” AJ

**Bosh direktorining xodimlar va
ma'muriy masalalar bo'yicha
o'rinbosari – boshqaruv a'zosi**



Q.X. Taparov

**“NKMK” AJning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni
ko'rib chiqish natijalari haqidagi
HISOBOT**

2025-yil 30-iyun holatiga

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJga 2025-yilning o'tgan davri mobaynida korrupsiyaga oid jami **35** ta murojaat kelib tushgan. Shundan, 17 tasi yozma shaklda, 6 tasi O'zbekiston Prezidenti virtual qabulxonasi orqali, 12 tasi Jamiyat ishonch telefoni orqali kelib tushgan.

Mazkur murojaatlar asosida **4** ta xizmat tekshiruvi olib borilgan va **31** ta o'rganish o'tkazilib, tegishli tartibda murojaat mualliflariga javob xatlari yuborilgan.

Shuningdek, murojaatlarni ko'rib chiqish natijasi yuzasidan **30** tasi bo'yicha tushuntirish berilgan bo'lsa, **5** tasi bo'yicha asoslar mavjud bo'lganligi sababli qisman qanoatlantirilgan.

2 nafar fuqaro tomonidan yuborilgan **2** ta murojaatlarni ko'rib chiqish davomida aniqlangan holatlar (*yoki murojaatning bir qismi*) vakolat doirasida ko'rib chiqish uchun tegishliligi bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi.

Murojaatlarni ko'rib chiqish davomida, aniqlangan qoidabuzarlik holatlari yuzasidan **5** nafar xodim intizomiy javobgarlikka tortilgan.

Komplayens xizmati boshlig'i

R.F. Avezov